

**Samarqand viloyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari**  
(2018 yil yanvar-sentyabr)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Yalpi hududiy mahsulot</b>	<b>15 623,0</b>	<b>102,9</b>
Sanoat mahsuloti	<b>8 014,8</b>	<b>106,2</b>
Iste'mol tovarlari	<b>5 039,2</b>	<b>108,1</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7 723,6	97,5
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	4 015,2	135,1
Qurilish ishlari	2 142,1	109,6
Yuk aylanmasi ( <i>mln. tn-km</i> )	751,8	101,1
Yo'lovchi aylanmasi ( <i>mln.yo'lovchi-km</i> )	1 0751,0	102,2
Chakana tovar aylanmasi	7 821,0	105,5
Xizmatlar, jami	7 115,8	108,2
Tashqi savdo aylanmasi ( <i>mln. AQSH doll</i> )	1 072,3	137,2
Eksport	207,7	114,7
Import	864,6	144,0
Saldo (+;-)	-656,9	156,7

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi 15623,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan 2,9 foizga o'sdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida YaHM deflyator indeksi 118,2 foizni tashkil qildi.

### Yanvar-sentyabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	<i>mlrd.so 'm</i>		<i>2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2017 yil</i>	<i>2018 yil</i>	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>12842,3</b>	<b>15623,0</b>	<b>102,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12564,1	15230,2	102,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	278,2	392,8	106,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>12564,1</b>	<b>15230,2</b>	<b>102,9</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4106,2	4900,0	97,5
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3016,9	3877,9	106,3
Sanoat	2285,0	2920,5	105,3
Qurilish	731,9	957,4	109,6
Xizmatlar	5441,0	6452,3	104,9
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1206,9	1475,1	103,9
Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	1312,3	1461,4	108,3
Boshqa xizmatlari	2921,8	3515,8	103,8

## Yanvar-sentyabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi (foizda)



2018 yilning yanvar-sentyabrda viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga ta'siri qurilish 6,3 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,7 %) va sanoat (qurilishni qo'shgan holda) (25,5 %) tarmoqlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat hissasiga to'g'ri kelmoqda.

YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 70,7 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan 1,8 bandga kamaygan.

2018 yil yanvar-sentyabrda yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 42,3 foizni tashkil qildi.